XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-12-82, (+99876) 224-12-96

2022 - yil 30 - dekabr VI-56-192-8-121-K/22 Termiz shahar hokimligi

Termiz shahridagi “Guliston” mahallasini bo‘lish hisobiga yangi mahalla tashkil etish, nom berish hamda ularning chegaralarini o‘zgartirish va belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 48-son qaroriga muvofiq, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasining taqdim etgan hujjatlari xalq deputatlari shahar Kengashining tegishli doimiy komissiyasida ko‘rib chiqilib va muhokama qilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasining 2022-yil 02-dekabrdagi 13-01/128-YB-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Guliston” mahalla fuqarolar yig‘inini bo‘lish hisobiga yangi mahalla tashkil etish, nom berish hamda ularning chegaralarini o‘zgartirish va belgilash to‘g‘risidagi iltimosnomasi ma’qullansin.

3. Quyidagilar:

Termiz shahridagi hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallaning nomi 1-ilovaga muvofiq;

Termiz shahridagi hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallaning chegarasi va tavsifi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Z.Meyliyev):

- yangi tashkil etilayogan mahallaning to‘liq shakllanishi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratilsin;

- hududiga o‘zgartirish kiritilgan mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi o‘rtasida tegishli tushuntirish ishlari olib borilsin.

5. Shahar hokimining birinchi o‘ribosari (A.Bo‘riyev), shahar moliya bo‘limi (A.Safarqulov):

- yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini xodimlari mehnatiga haq to‘lash uchun zarur mablag‘larni mahalliy budjetdan belgilangan tartibda ajratish choralari ko‘rilsin.

6. Shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Z.Meyliyev), shahar IIB (E.Nurullayev), shahar qurilish boshqarmasi (J.Mingliboev), kadastr agentligining shahar bo‘limi (A.Buzrukov), Davlat kadastrlar palatasi shahar filali (I.Ziyaqulov), shahar Davlat soliq inspeksiyasi (S.Muxamadiyev), shahar statistika bo‘limi (Yu.Turdiyev), shahar moliya bo‘limi (A.Safarqulov), shahar Davlat xizmatlari markazi (N.Ashurov) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini nomini, chegarasini, aholi va xonadonlar sonini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, elektron bazani shakllantirish, moliyalashtirish va bino bilan ta’minlash, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirsinlar.

7. Shahar Ichki ishlar boshqarmasi (E.Nurullayev) nomi o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish;

shuningdek, shahar hududidagi chegara hududlari o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi fuqarolarni qayta ro‘yxatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish;

tashkil etilayotgan yangi mahalla fuqarolar yig‘iniga profilaktika inspektor shtat birligi yuzasidan taklif kiritish va tegishli MFYga biriktirish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

8. Shahar qurilish boshqarmasi (J.Mingliboyev) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan hamkorlikda hududlarda yangi nomlangan va nomi o‘zgartirilgan mahallaning yangi nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

9. Shahar hokimligi Axborot xizmati (O.Xudoyqulov) va “Termiz oqshomi” gazetasi tahririyati (A.Saidmalikov)ga mazkur qarorni ijtimoiy tarmoqlar hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga yoritilishini ta’minlasin.

10. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Ushbu qarorning bajarilishini shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i Z.Meyliyev, ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Xidirova) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **O‘.I.To‘rayev**

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-56-192-8-121-K/22-son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Termiz shahar "Yangidavr" mahallasining ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

TARHI



SHARTLI BELGILAR

Chegaraning asosiy burilish nuqtalari

Chegara chizig'i

Termiz shahar cac.ecw

RVG

	QIZIL: Red
	YASHIL: Green
	KO'K: Blue

A dan B gacha Guliston mahallasi

B dan D gacha Farovon mahallasi

D dan E gacha Yangi Manguzar mahallasi

E dan A gacha Termiz tumani

3

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-56-192-8-121-K/22-son qaroriga
2-ilova

Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi “Yangidavr” mahallasining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash

TAVSIFI

“Yangidavr” mahallasining chegarasi quyidagicha ta’riflandi: Guliston mahallasi hududining shimol tomoni Islom Karimov ko‘chasi bo‘ylab chap tomonida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. (WGS-84 koordinatalar tizimida, *shimoliy kenglik koordinatalari 37°14'3.40"C, sharqiy uzunlik koordinatalari 67°18'47.48"B)*

1-nuqtadan chegara chizig‘i Guluston mahallasi hududi bo‘ylab chap tomoni bilan Janubiy-sharqiy yo‘nalishda 100 metr masofada Islom Karimov ko‘chasi bo‘ylab, 2-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 37°13'54.51"C, sharqiy uzunlik 67°18'31.67"B)*

2-nuqtadan chegara chizig‘i yo‘lining yo‘nalishi bo‘ylab Janubiy-sharqiy yo‘nalishda 150 metr masofada Farovon mahallasi Islom Karimov ko‘chasi hududi chegarasi burilishida joylashgan
3-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 37°14'13.00"C, sharqiy uzunlik 67°18'16.05"B)*

3-nuqtadan chegara chizig‘i Yangi Manguzar mahallasi hududi bo‘ylab chap tomoni bilan Shimoliy-garbiy yo‘nalishda Qirg‘oqbo‘yi ko‘chasi hududidan 4-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 37°14'31.87"C, sharqiy uzunlik 67°18'51.70"B*

4-nuqtadan chegara chizig‘i Termiz tumani hududi bo‘ylab bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 400 metr masofada Do‘stlik kanali hududidan, 1-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 37°14'3.02"C, sharqiy uzunlik 67°19'33.28"B*

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-56-192-8-121-K/22-son qaroriga
3-ilova

Termiz shahridagi hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga bo‘linayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan mahallaning nomi

T/p	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Shahar va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Respublika Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosasi
1.	**Mahalla**	**Nomsiz (“Guliston” mahallasi tarkibida)**	**“Yangi davr”**	**Yangidavr-** “Geografik obyekt nomlarining o‘zbek tiliga yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq